



TIIAME

2-bosqich 1-semestr.
2-mavzu:"Go‘ro‘g’lining tug’ilishi”
dostoni



Adabiyot

Abdukadirova M.M.



TILAME

Reja:

1. Xalq dostonlari haqida.
2. Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostoni sujetining o‘ziga xosligi.
3. Dostondagi asosiy qahramonlar tavsifi.
4. Dostonning badiiy-estetik hamda tarbiyaviy ahamiyati.

Dars shiori:


Yaxshilik nur keltirar,

Yomonlik – zulmat.

(O'zbek xalq maqoli)

Hamma bir kishi uchun, bir
kishi hamma uchun.





- “Doston” so‘zi fors tilidan olingan bo‘lib “qissa”, “hikoya”, “tarix” degan ma’nolarni anglatadi. Doston so‘zi ko‘p ma’nolidir. O‘zbek tilining izohli lug‘atida bu so‘zning olti xil ma’nosи berilgan.
- 1 ad. Nazm bilan yozilgan ulkan hikoya, qissa, poema. *Navoiyning “Layli va Majnun” dostoni.*
 - 2 ad. Xalq qahramonlari haqida nazmda va nasrda aytilgan epik asar. *O‘zbek xalq dostonlari.*



TILAME

Xalq dostonlari har bir millatning ma’naviy qiyofasi, uning tarixi, qadriyatlarini mukammal aks ettiruvchi bamisol oynadir. Unda har bir xalqning urf-odatlari, milliy o‘ziga xosligi yaqqol ko‘rinib turadi. Dostonchilik xalq og‘zaki ijodida qadimiy epik an’ana hisoblanadi. Dostonlar, asosan, do‘mbira jo‘rligida aytiladi va ham ijroda, ham badihada juda katta ijodiy mahorat talab qiladi. Dostonning yana bir xususiyati og‘izdan og‘izga o‘tib, avloddan avlodgacha yetib kelganidir.



TILAME

Dostonchilik haqida



Dostonlar asosan do‘mbira jo‘rligida aytildi va ijrochidan ham badihada, ham ijroda juda katta ijodiy mahorat talab qiladi.

Folklorshunos olim T. Mirzayevning ma’lumotlariga ko‘ra, XV-XVI asrlarda yirik dostonchilik maktablari paydo bo‘lgan, XIX-XX asrlar esa dostonchilik taraqqiyotida juda rivojlangan davr bo‘lgan. XX asr boshlariga kelib baxshilarimiz ijodiy bisotida 150 dan ortiq xalq dostonlari bo‘lgan.



- Dostonni baxshilar kuylaydilar. Qadimgi zamonalarda “baxshi” so‘zi xalqona usullar bilan bemorni davolovchi tabib, ayrim hududlarda ustoz ma’nolarini anglatgan.
- Bugungi kunda bu so‘z, asosan, xalq dostonlarini kuylaydigan san’atkorni bildiradi.





Doston turlari

Xalq og'zaki
ijodiga mansub
dostonlar

- “Alpomish”, “Go'ro'g'lining
tug'ilishi”, “Rustamxon”,
“Kuntug'mish ”, “Ravshan”,
“Malikai Ayyor”

Yozma
shakldagi
dostonlar

- “Qutadg'u bilig”, “Gul va
Navro'z”, “Farhod va Shirin”,
“Hayratul Abror”, “Layli va
Majnun”



- “Alpomish”,
Go'rrogli türkümidağı
- “Go'rroglining
tug'ilishi”,
- “Malika Ayyor”,
- “Ravshan”,
“Kuntug'mish”,
“Rustamxon”
og'zaki
namunalaridir.

kabilar
doston



“Go‘ro‘g‘li” dostoni haqida



O‘zbek xalq dostonchiligidagi «Go‘ro‘g‘li» turkumi katta o‘rin tutadi. Hozirgacha uning tarkibida oltmishdan ortiq doston mavjud. Ularda xalq tarixi, taqdiri, o‘tmishdagi hayoti, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, diniy, axloqiy-ma’naviy hamda badiiy-estetik qarashlari o‘ziga xos tarzda aks etgan.



“Go`ro`g`li” dostoni haqida



TIIAME



«Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi» – shu turkumning ilk dostoni.

Uni ko‘plab baxshilar ijro etishgan. Darslikda Muhammad Jomurot o‘g‘li Po‘lkan shoir (1874–1941) varianti berilgan.

Unda xalqning juda qadim zamonlardagi badiiy-estetik qarashlari ifodalangan. Shu ning uchun undagi ayrim fakt va motivlar, obraz va ularning talqinlari hozirgi tasavvurlarimizdan keskin farq qiladi.




TILAME

Go‘ro‘g‘lining o‘ziga xos sifatlari

Go‘ro‘g‘lining g‘ayritabiyy tug‘ilishi – uning kelajakda boshqalarga o‘xshamaydigan, favqulodda kuchqudrat, aql-idrok egasi bo‘lib kamol topishiga ishora.

Tengdoshlariga nisbatan sho‘xliklari, o‘zidan kattalarga ham tegajoqlik va zo‘ravonlik qilishi esa undagi alplik alomatlarining badiiy tasviridir.



- Parokanda bo‘layozgan Taka-Yovmit elida Go‘ro‘g‘lining kelishi bilan tub burilishlar sodir bo‘ldi. Eng muhim, u el-yurt sha’nini, shavkatini, ornomusini tiklaydi. Go‘ro‘g‘lida yigitlik burchi va mas’uliyatini his etish juda kuchli darajada shakllangan. Ayni mana shu tuyg‘u uni harakatga soladi, kuchiga kuch bag‘ishlaydi.






- Xalq dostonlarida qahramon har doim o‘z oti bilan birgalikda namoyon bo‘ladi. Esingizda bo‘lsa, Alpomishning ham oti bor edi. U Boychibor nomi bilan mashhur bo‘lgan. Xuddi shuningdek, bu yerdagi G‘irot ham mana shunday jangovar otlar timsolidir.





ТИАМЕ

Umuman, doston xalqning qadimiy va boy tarixini, jangovar o‘tmishini, milliy-ma’naviy qadriyatlar mazmuni va mohiyatini yuksak badiiyat bilan ko‘rsatib bera olgan ajoyib badiiy-qomusiy merosdir.





TIIAME

Doston voqealari Zargar yurtining podshosi Shohdorxonning Yovmit yurtiga bosqinchilik urushi qilishi bilan rivojlanib boradi. Bu yerda ikki davlat podsholarining, ya’ni Go‘ro‘g‘lining bobosi Odilxon podsho bilan Shohdorxonning o‘ziga xos bo‘lgan xislatlari yoritiladi. Odilxon podshoning insoniy fazilatlariga qarama-qarshi o‘laroq, Shohdorxonning nuqsonlari ko‘zga tashlanadi. Shohdorxonning maslahatga qulq solmay, o‘ylamay qaror qabul qilishi, uzoqni ko‘ra bilmasligi ko‘plab insonlarning bevaqt o‘limiga, taqdirlarining o‘zgarib ketishiga sabab bo‘ladi.



TIIAME

Chunki mana shu urush tufayli Go‘ro‘g‘lining ota-onasi – Ravshan va Bibi Hilol ham bolaligida Zargar eliga borib qolib, musofirchilikda voyaga yetadi.

Go‘ro‘g‘lining g‘ayritabiiy tug‘ilishi – uning kelajakda boshqalarga o‘xshamaydigan, favqulodda kuch-qudrat, aql-idrok egasi bo‘lib kamol topishiga ishora. Tengdoshlariga nisbatan sho‘xliklari, o‘zidan kattalarga ham tegajoqlik va zo‘ravonlik qilishi esa undagi alplik alomatlarining badiiy tasviridir.

«Go‘ro‘g‘li» nomining talqinlarida turli yondashuvlar mavjud. Jumladan, uning «go‘r» – qabrda tug‘ilishi motivini asoslaydigan qarashlar ham ustuvorlik kasb etgan. Ayni paytda, uning «ko‘r otaning farzandi» ekanligiga urg‘u beradigan yo‘nalish ham mavjud. Jumladan, Po‘lkan shoir variantida mana shu ikkala qarashning ham ta‘siri ochiq seziladi.



**So'zga libos berib, gavhar taqqan baxshilar:
Ergash Jumanbulbul va Po'lkan shoir**



Venn diagrammasiga dostonlarni asosiy
xususiyatlarni yozamiz :



TIIAME

“Go‘ro‘g‘li” dostoni

- 1.
- 2.
- 3.
- 4.

“Rustamxon” dostoni

- 1.
- 2.
- 3.
- 4.



Toifalash jadvali



TILAME

“Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonidagi obrazlar

Odilxon podsho

- 1.
- 2.
- 3.
- 4.
- 5.

Shohdorxon

- 1.
- 2.
- 3.
- 4.
- 5.

I shart. “Charxpalak” texnologiyasi: Doston qahramonlarini tegishli o‘rinlarga joylashtiring.

Namuna:


Doston qahramonlari	“Ravshan” dostoni	“Kuntug‘mish” dostoni	“Alpomish” dostoni	“Malika Ayyor” dostoni
Xolbeka				
Avazxon				
Buvraxon				
Tovka oyim				
Soqibulbul				
Olim sayyod				
Ko‘kaman				
Oqqiz				
Xadicha				
Ersak kal				
Yortiboy				





TILAME

Xalq baxshilari davlat e'tiborida





“Boysun bahori” yosh baxshilar tanlovidan



TIIAME





TIIAME

Mavzu bo'yicha savollar.

1. Dostonda ot obrazi qanday tasvirlangan? Uni misollar yordamida tushuntirib bering.
2. Dostonda ko'plab maqollar ham qo'llangan. Ularni toping, matnda bajarayotgan vazifasini tushuntiring.
3. «Go'ro'g'libek ko'zini ochib qarasa, katta bir shahar ko'ziga ko'rindi...» gapi bilan boshlanadigan xatboshini o'qing. Shu shahar haqidagi tasavvurlaringizni aytib bering.
4. Sol, kema, qayiq so'zlarining ma'nosini bilasizmi? Lug'atlarga qarab ularni aniqlang.
5. Dostonning she'riy qismi ko'pincha to'rt misrali bandlar shaklida keladi. Fikr oqimining shiddati, his-hayajonning kuchi bilan ularda ayrim o'zgarishlar bo'lishi mumkin. Shunday o'rnlarni toping va ularni izohlashga harakat qiling.
6. Alovida voqealarning bir-biri bilan bog'lanishi qanday amalgalashganiga e'tibor berdingizmi? Ularning ayrimlarini toping va tushuntirib bering.



Uyga vazifa:

- 1."Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi" dostonini o‘qib kelish.
- 2.Dostonning badiiy xususiyatini tahlil qilish.
- 3.Dostondagi timsollarga tavsif berish.